

ISSN 2524-0986



АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

ЖУРНАЛ



Выпуск 4(84)
Часть 2

Переяслав
2022



АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

ВЫПУСК 4(84)

Часть 2

Апрель 2022 г.

ЖУРНАЛ

Выходит – 12 раз в год (ежемесячно)
Издается с июня 2015 года

Включен в наукометрические базы:

Google Scholar <https://scholar.google.com.ua/citations?user=JP57y1kAAAAJ&hl=uk>

Бібліометрика української науки

http://nbuviap.gov.ua/bpnu/index.php?page_sites=journals

Index Copernicus

<http://journals.indexcopernicus.com/++++,p24785301,3.html>

Переяслав

УДК 001.891(100) «20»

ББК 72.4

A43

Главный редактор:

Коцур В.П., доктор исторических наук, профессор, академик Национальной академии педагогических наук Украины

Редколлегия:

Базалук О.А.	д-р филос. наук, професор (Украина)
Доброскок И.И.	д-р пед. наук, профессор (Украина)
Кабакбаев С.Ж.	д-р физ.-мат. наук, профессор (Казахстан)
Мусабекова Г.Т.	д-р пед. наук, профессор (Казахстан)
Смырнов И.Г.	д-р геогр. наук, профессор (Украина)
Исак О.В.	д-р социол. наук (Молдова)
Лю Бинцянь	д-р искусствоведения (КНР)
Тамулет В.Н.	д-р ист. наук (Молдова)
Брынза С.М.	д-р юрид. наук, профессор (Молдова)
Мартынюк Т.В.	д-р искусствоведения (Украина)
Тихон А.С.	д-р мед. наук, доцент (Молдова)
Горашенко А.Ю.	д-р пед. наук, доцент (Молдова)
Алиева-Кенгерли Г.Т.	д-р филол. наук, профессор (Азербайджан)
Айдосов А.А.	д-р техн. наук, профессор (Казахстан)
Лозова Т.М.	д-р техн. наук, профессор (Украина)
Сидоренко О.В.	д-р техн. наук, профессор (Украина)
Егиазарян А.К.	д-р пед. наук, профессор (Армения)
Алиев З.Г.	д-р аграрных наук, профессор, академик (Азербайджан)
Партоев К.	д-р с.-х. наук, профессор (Таджикистан)
Цибулько Л.Г.	д-р пед. наук, доцент, профессор (Украина)
Баймухамедов М.Ф.	д-р техн. наук, профессор (Казахстан)
Мусабаева М.Н.	д-р геогр. наук, профессор (Казахстан)
Кабылбекова З.Б.	д-р пед. наук, профессор (Казахстан)
Хеладзе Н.Д.	канд. хим. наук (Грузия)
Таласпаева Ж.С.	канд. филол. наук, профессор (Казахстан)
Чернов Б.О.	канд. пед. наук, профессор (Украина)
Мартынюк А.К.	канд. искусствоведения (Украина)
Воловык Л.М.	канд. геогр. наук (Украина)
Ковальська К.В.	канд. ист. наук (Украина)
Амрахов В.Т.	канд. экон. наук, доцент (Азербайджан)
Мкртчян К.Г.	канд. техн. наук, доцент (Армения)
Стати В.А.	канд. юрид. наук, доцент (Молдова)
Бугаевский К.А.	канд. мед. наук, доцент (Украина)
Цибулько Г.Я.	канд. пед. наук, доцент (Украина)
Яронова Н.В.	канд. техн. наук (Узбекистан)

Актуальные научные исследования в современном мире // Журнал - Переяслав, 2022. - Вып. 4(84), ч. 2 – 173 с.

Языки издания: українська, русский, english, қазақша, o'zbek, limba română, Հայերեն

Сборник предназначен для научных работников и преподавателей высших учебных заведений. Может использоваться в учебном процессе, в том числе в процессе обучения аспирантов, подготовки магистров и бакалавров в целях углубленного рассмотрения соответствующих проблем. Все статьи сборника прошли рецензирование, сохраняют авторскую редакцию, всю ответственность за содержание несут авторы.

УДК 001.891(100) «20»

ББК 72.4

A43

Әуезханова Алтынай, Асан Мадина, Кәрімова Саяжан, Кенжетаева Замира Азыевна, Мельдебекова Айнура Амангельдыевна, Арыстан Лейла Ибадуллаевна (Караганда, Қазақстан) ТЫНЫС АЛУ ЖҮЙЕСІ АУРУЛАРЫМЕН ГОСПТАЛИЗАЦИЯЛАНҒАН НАУҚАСТАР АРАСЫНДА ҚОСАЛҚЫ АУРУЛАРДЫҢ КЕЗДЕСУ ЖИІЛІГІ	69
Жумабек Асет Канатулы, Ташметова Севара Бахромжонкизи, Шаймерденова Сабина Мейрамовна, Дауренбекова Айгерим Алматовна (Караганда, Казахстан) COVID-19-АССОЦИИРОВАННЫЙ ТРОМБОЗЫ ВЕН.....	74
Жунусова Адема Уалиханова, Ауганбаев Нуржан Рахметилдаевич, Джарбусынова Ботагоз Бинешовна (Алматы, Казахстан) COVID-19 КАК ПРЕДИКТОР ПСИХОТИЧЕСКОГО РАССТРОЙСТВА: ОБЗОР	78
Журметова Луиза Маратқызы, Досмагамбетова Жанар Амангельдиновна, Жасланова Майя Руслановна, Шарапиева Жания Сельхановна (Караганда, Казахстан) ТРУДНОСТИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ И ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЙ ДИАГНОСТИКИ БОТУЛИЗМА.....	82
Калиева Диана Сериковна, Сарсенбаева Феруза Султанбековна (Нур-Султан, Казахстан) ОБЩИЙ НАРКОЗ В ДЕТСКОЙ СТОМАТОЛОГИИ.....	86
Какенова Асель Аманжоловна, Тұрсын Ақмарал Кенжебекқызы, Булхаирова Загира Мухтаровна, Жакупбекова Самал Данабекқызы (Караганда, Казахстан) КОРОНОВИРУСНАЯ ИНФЕКЦИЯ БЕРЕМЕННЫХ.....	89
Нургалиева Дариға Төлеугазиновна, Маматова Назерке Бектасқызы, Сабихан Аяулым Мейрамбекқызы (Семей, Казахстан) КЛИНИЧЕСКОЕ ТЕЧЕНИЕ COVID-19 У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ.....	92
Пшембаева Роза Кенжебаевна (Нур-Султан, Казахстан) ANTI-AGE ТЕРАПИЯ – НОВОЕ СЛОВО В СТОМАТОЛОГИИ	97

СЕКЦИЯ: НАУКИ О ЗЕМЛЕ

Janizova G., Ne'matova S., Mo'minova L., Bahromova M. (Jizzax, O'zbekiston) MOLGUZAR TIZMASI TOG' VA TOG' OLDI TEKISLIK LANDSHAFTLARINING BIOLOGIK RESURLARINI O'RGANISH.....	100
Канівець Олена Миколаївна, Костян Дмитро Олександрович (Суми, Україна) ДЕРЖАВНА ГЕОДЕЗИЧНА МЕРЕЖА УКРАЇНИ ЯК ЧАСТИНА ГЕОДЕЗИЧНОЇ ІНФРАСТРУКТУРИ, НІНІШНІЙ СТАН ТА ПРОБЛЕМИ	104

СЕКЦИЯ: НАУКИ О ЗЕМЛЕ

УДК 911.502.37

G. Janizoqova
Jizzax davlat pedagogika instituti
Geografiya va IBA kafedrasi o'qituvchisi, Ilmiy rahbar
Ne'matova S., Mo'minova L., Bahromova M.
Geografiya va IBA yo'nalishi 1-kurs talabalari
(Jizzax, O'zbekiston)

MOLGUZAR TIZMASI TOG' VA TOG' OLDI TEKISLIK LANDSHAFTLARINING BIOLOGIK RESURLARINI O'RGANISH

Annotatsiya. Hozirgi kunda ham Jizzax viloyatining aholi eng zich va insonlar tabiatga izchil ta'sir ko'rsatayotgan hududlardan biri bu Molguzar tizmasi va tog' oldi tekisligi hisoblanadi. Ushbu maqolada Molguzar tizmasi va uning biologik resurslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tog', tizma, dovon, Ilono'tdi darasi, Sangzor, Molguzar, adir, Sho'rbel dovoni, efemer, tuproq, buta, o't-o'simlik.

Джанизакова Г.
Джизакский государственный
педагогический институт Преподователь кафедры
географии и МБА, научный руководитель
Неъматова С., Муминова Л., Бахромова М.
студенты 1 курса специальности «География» и IBA
(Джизак, Узбекистан)

Аннотация. Даже сегодня одним из самых густонаселенных районов Джизакской области, где человек последовательно воздействует на природу, является Мальгузарский хребет и предгорья. В данной статье рассматривается Мальгузарский хребет и его биологические ресурсы.

Ключевые слова: гора, хребет, перевал, ущелье Илонотди, Санзар, Мальгузар, возвышенность, перевал Шорбель, эфемер, почва, кустарник, трава.

G. Janizakova
Jizzakh State Pedagogical Institute
Lecturer at the Department of Geography and IBA, Supervisor
S. Ne'matova, L. Mo'minova, M. Bahromova
1st year students majoring in Geography and IBA
(Jizzakh, Uzbekistan)

Annotation. Even today, one of the most densely populated areas of Jizzakh region, where people have a consistent impact on nature, is the Molguzar ridge and the foothills. This article discusses the Molguzar ridge and its biological resources.

Keywords: *mountain, ridge, pass, Ilonotdi gorge, Sangzor, Molguzar, hill, Shorbel pass, ephemeral, soil, bush, grass.*

Molguzar tizmasi qadimdan insonlar yashab kelayotgan hudud bo'lib, unda tabiat va inson, tabiiy landshaftlar hamda unga inson ta'siri kabi masalalar ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi kunda ham Jizzax viloyatining aholi eng zich va insonlar tabiatga izchil ta'sir ko'rsatayotgan hududlardan biri bu Molguzar tizmasi va tog' oldi tekisligi hisoblanadi.

Turkiston tizmasining eng shimoli-g'arbiy tarmog'ida Molguzar tizmasi joylashgan bo'lib, sharqdan g'arbga 75 km masofaga cho'zilgan. Eng baland nuqtasi Sho'rbel dovoni (2621 m) bo'lib, deyarli tizmaning markaziga to'g'ri keladi.

Molguzar tizmasi tog' va tog' oldi tekislik landshaftlarining tuproq qoplamini mutaxassislar tomonidan yetarli darajada o'rganilgan. Tuproqlarning shakllanishida joyning tabiiy geografik sharoiti, relyefi, tog' jinslari va namlik muhim ahamiyatga ega. Tuproq hosil qiluvchi ona jinslar turlicha va ximiyaviy tarkibi bilan ham farqlanadi. Tuproq hosil bo'lishidagi biologik jarayonlar ham mutlaq balandlik, relyef shakli, yonbag'irlar ekspozitsiyasi va qiyaligiga bog'liq. Hududda tarqalgan tuproqlar asosan och bo'z, tipik bo'z, to'q tusli bo'z va tog' jigarrang tuproqlardan iborat. Bu tuproqlar tog' va tog' oldi tekislik landshaftlarida balandlik bo'yicha quyidagicha tarqalgan:

- 400 metrdan 800 metrgacha balandliklarda tipik bo'z tuproqlar;
- 800-900 metrdan 1200 metrgacha balandliklarda to'q tusli bo'z tuproqlar,
- 1200-2000 metr oralig'ida tog' jigarrang tuproqlari tarqalgan. Undan yuqorida tog' o'rmonlari ostida tog'-o'rmon jigarrang tuproqlari hosil bo'lgan.

Molguzar tizmasining o'simlik qoplamini joyning tuproqlari, geomorfologik va iqlimiy xususiyatlariga bog'liq holda rivojlangan. Turlicha litologik sharoit va relyef, iqlim va namlikka eng mos turlargina moslashib qolgan. Bu yerda o'simliklarning balandlik bo'yicha mintaqalanishi ko'zga yaqqol tashlanadi. O'simliklar tarqalishi joyning mutlaq balandligiga, relyef sharoitiga, yonbag'irlar ekspozitsiyasiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Janubiy yonbag'irlardan farq qilib, shimoliy yonbag'irlarda quyi o't-o'simliklar va butasimonlar keng tarqalgan. Molguzar tizmasi shimoliy yonbag'irlaridagi tog' oldi tekislik landshaftlari, ya'ni Mirzacho'lning tutash hududlarida, lyossli jinslar tarqalgan qismida efemer, efemeroid va boshqa o't-o'simliklar hamda chala butasimon shuvoq kabilar o'sadi. Bu joylarda seryomg'ir bahor faslida avval efemerlar va efemeroidlar zich o'sib chiroyli manzara hosil qiladi. Bu faslda qorabosh (rang), qo'ng'irbosh, boychechak, binafsha, chuchmomo kabilar barq urib o'sib hudud yashil tusga kiradi. Bulardan tashqari yana sassiqquvray, lola, gulsapsar, piyoz ildizlilar, ayiqtovon, mingbosh, chalov, shuvoq, astragal, darmana, ba'zan aholi punktlariga yaqin joylarda isiriqlar o'sadi.

Molguzar tizmasining tog' oldi tekisligiga tutash adir balandlik mintaqasida (400-500 metrdan 1200 metrgacha) relyefning balandlashuvi natijasida yog'in miqdori ortadi, yozgi harorat esa nisbatan pastroq bo'lib, tipik va oddiy bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Bular o'z navbatida adirda har xil o'tlarni zich va baland bo'lib o'sishiga sabab bo'lgan. Lekin o'r-qirdan iborat bo'lgan adirlarning quyi qismi daryo, soy va vaqtli suvlar bilan parchalab yuborilgan bo'lsa, yuqorigi qismida esa ba'zi tog' yonbag'irlari tik bo'libona jinslar ochilib qolgan. Binobarin, adirda o'simliklar qoplamini yoppasiga tutash bo'lmay, ona jinslar ochilib qolgan. Tik yonbag'irlar,

oqar va vaqtli suvlar yuvib ketgan joylarda uzilib qolgan. Umuman olganda adir mintaqasida undan quyi qismga nisbatan o'simlik turlari ko'p bo'lib, qalin o'sadi. Bir kv km maydonda 15-20 turga mansub bo'lgan 30 ming individ uchraydi. Adir o'simliklarining asosini efemer va efemeroidlar, ko'p yillik har xil o'tlar, butalar tashkil etadi. Adirda efemer va efemeroid o'simliklaridan rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, no'xatak, chuchmomo, lola, oqquvray, gulxayri, sasir, qoqi kabilar qalin o'sib, iyul oyigacha vegetatsiyasini davom ettiradi. Bulardan tashqari yana shuvoq, yovvoyi bug'doy (qasmaldoq), tak-tak (yovvoyi arpa), jasmin, cho'l yalpizi, ferul, chalov, mingbosh, otqulok, ermon, zubturm (bargizub), qo'ziquloq, karrak, qiltiq, yersovun (yetmak), shirach kabi o'simliklar ham o'sadi. Adirning yuqori qismida toshloqi yerlarda astrogal, akantolimon, chiya, soylarda zirk, qo'shyaproq, namatak kabi butalar, do'lana, bodomcha, pista kabi daraxtlar, ariq uylarida yalpiz qirqbo'g'im ham uchraydi.

O'rganilayotgan hududda tog' balandlik mintaqasi 1200 metrdan Molguzar tizmasining eng baland (2621 m) qismigacha davom etadi. Bu balandliklarda relyef murakkab, nihoyatda parchalanib ketgan. Morguzar tizmasining shimoliy yonbag'irlarida jagarrang va qo'ng'ir tog' o'rmon tuproqlari uchraydi. Yog'in ko'prok tushadigan shimoliy yonbag'ir bo'lganligi uchun kichik-kichik maydonlarda bargli o'rmonlar va har xil butazorlar ko'p o'sadi. Tog' balandlik mintaqasining quyi qismida ko'proq o'tloq o'simliklari xususan, bug'doyiq, kovrak, shirach-eremurus, kukchup (isfarak), gulxayri, lolar, anjabir, arslonquyruq, yerchoy, binafsha, tak-tak (tog' arpa), tariqbosh tulkiquyruq, chayir, yalpiz, kiyiko'ti, shuvoq, chalov kabilar o'sadi. Tog' mintaqasining nisbatan qurg'oqchil qismlarida esa tog'sagiz, qizil tikanak, astragal, tog' yalpiz, betaga, chalov, shuvoq kabi o'tlar uchraydi. Tog' balandlik mintaqasida shuningdek, archazorlar anchagina maydonni egallaydi. Bu yerda archaning uch turi–Zarafshon archasi, yarimsharsimon (saurarcha) archa va Turkiston (qoraarcha) archasi o'sadi. Zarafshon archasi ko'proq 1200-2200 metr balandliklardagi joylarda, yarimsharsimon archalar esa 1800-2700 metr balandliklarda, Turkiston archasi 2600 metr va undan balandda o'sadi. Archazorlar ko'proq nisbatan qurg'oqchil va toshloq yerlarda uchraydi. Ular asta-sekin o'sib bo'yi 20 metrgacha yetadi hamda ming yildan ortiq yashaydi. Archazorlar tagida esa har xil o'tlar va butalar uchraydi. Tog' balandlik mintaqasida butalardan uchqat, namatak, irg'ay, zirk, maymunjon, yovvoyi uzum, katrangi, bodomcha, kabilar mavjud. Hududda yana tog' piyoz, anzur piyoz, zira, rovoch, taran, tuyayaproq, tog' jambuli, kiyiko'ti, tog'sagiz kabi foydali va dorivor o'simliklar ham uchraydi.

Tog' oldi tekisligining yuqori qismida bahorikor dehqonchilik sharoitida hayvonlardan qushlar, kemiruvchilar va hashoratlar tarqalgan. Kemiruvchilardan sariq yumronqoziq, Osiyo jayrasi, Seversev qo'shoyog'i, kichik qo'shoyoq, Turkiston kalamushi, uy sichqoni va boshqalar bor. Molguzar tizmasida hasharotlar shimoliy yonbag'rida janubiy qismiga nisbatan ko'proq uchraydi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki tog' va tog'oldi hududlari har doim biologik resurslariga boy hudud hisoblanadi va u inson xo'jalik faoliyati uchun ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'o'dalov M. Jizzax viloyati tabiati va uni muhofaza qilish. Monografiya. – T., Fan va texnologiya nashriyoti 2014.
2. Zikirov B. Molguzar tog'larining noyob tabiiy yodgorliklari va ularning joylashuvdagi geografik qonuniyatlar. 2003.

3. Toshboyev Z. Molguzar tog'i va tog'oldi tekisliklari agrolandshaftlarining ba'zi ekologik muammolari. Ilmiy konferensiya. Samarqand, 2004
4. Ismatov N, Zikirov B. Molguzar tizmasi shimoliy yonbag'ridagi tog' va tog'oldi tekislik landshaftlari. Ilmiy konferensiya. Samarqand, 2004
5. G. Janizoqova, Ravshanov, R. (2020). Water Resources Of Molguzar Mountain And Front Plains. The USA Journals.
6. Gudalov, M. Janizaqov, I., & Janizoqova, G. (2020). Ways To Develop Ecotourism In The Molguzar Mountains. Scienceweb academic papers collection.
7. www.ziyonet.uz